



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, VOSITALARI VA TEXNOLOGIYALARI

Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna

*Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif
kafedrasiga katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqola boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish mazmunini aniqlash uchun takomillashtirilgan metodik modelning tamoyillari, komponentlari, omillari, amalga oshirish texnologiyalari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy yondashuvlar, tamoyillar, motivatsion, integrativ, kommunikativ, universal o'quv faoliyati, didaktik omillar, amalda qo'llash texnologiyalari.

СОДЕРЖАНИЕ, СРЕДСТВА И ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Моминова Гозалхон Гуламовна

*Старший преподаватель кафедры дошкольного и начального образования
Наманганского государственного университета*

Аннотация. В статье рассматриваются принципы, компоненты, факторы и технологии усовершенствованной методической модели формирования языковой компетенции в первом классе на уроках родного языка.

Ключевые слова: научные подходы, принципы, мотивация, интегративные, коммуникативные, универсальные учебные действия, дидактические факторы, технологии практического применения.

FORMING LINGUISTIC COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS: CONTENT, TOOLS, AND TECHNOLOGIES

Mo'minova Go'zalxon Gulamjanovna

*Senior Lecturer, Department of Preschool and Primary Education, Namangan State
University*

Abstract. The article is about the principles, components, factors, and implementation technologies of an improved methodological model for determining the content of the formation of linguistic competence in students in primary school native language lessons.



Keywords: scientific approaches, principles, motivational, integrative, communicative, universal educational activities, didactic factors, practical application technologies.

KIRISH

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv jarayoni subyektlarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish tajribasidan bugungi kunda samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSH, Germaniya, Angliya, Avstriya, Rossiya kabi davlatlarda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish sohasida samaradorlikka erishilmoqda. Bu esa, o'z navbatida Yevropa davlatlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlash, olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda sinab ko'rish, axborotlar bilan faol ishslash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lif kontsepsiyasida ustuvor yo'nalishlar sifatida o'z aksini topgan.

Ona tili savodxonligi fanini zamonaviy va ilg'or texnologiyalar asosida o'rgatish o'quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish o'qituvchilar oldida turgan muhum vazifalardan hisoblanadi. Ko'rinish turibdiki, lingvistik kompetensiya o'quvchilarda tilning grammatikaga oid bilimlarini rivojlantirish va o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'quvchilar o'z fikrlarini to'g'ri, izchil, ravon va ma'noli, shu bilan birga tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etishini shakllantirishdan iborat. Tilning grammatikgaa oid bilimlari deyilganda esa biz tilshunoslik fanining bo'limlari: fonetika – tovushlar, leksikologiya - so'zlarning lug'aviy boyligi, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya - so'z shaklari, sintaksis - so'z tuzilishi va qurilishi, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni egallashi tushuniladi.

Amaldagi ona tili fani dasturlarida lingvistik kompetensiya deganda nutq faoliyatida adabiy til me'yorlariga muvofiq so'zlar va ularning shakllari, sintaktik tuzilmalardan foydalanish qobiliyati tushuniladi va bu o'quvchiga ona tilining boyligini o'zlashtirish va nutq faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini

beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish maktab ta'limining dastlabki bosqichidan boshlanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLІ

O'zbekiston ta'lismida boshlang'ich sinf ona tili darslari bo'yicha darsliklar (masalan, 1-4-sinflar uchun "Ona tili" darsliklari, mualliflar: T.Qodirova, R.Xo'jayev va boshqalar) lingvistik kompetentlikni shakllantirishning asosiy mazmunini quyidagicha belgilaydi:

- Nutqni rivojlantirish: Og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, so'z boyligini oshirish.
- Grammatik qoidalarni o'zlashtirish: So'z turkumlari, jumla tuzilishi va imlo qoidalari o'rGANISH.
- Amaliy ko'nikmalar: O'qish, yozish va tinglash orqali tilni hayotiy vaziyatlarda qo'llash.

Sayfutdinova Durdonaning "Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari" (2021) maqolasida lingvistik kompetentlikning mazmuni o'quvchilarning tilni tahlil qilish va undan ijodiy foydalanish qobiliyatlari bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu jarayonda muammoli ta'lim usullari orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish mazmunini aniqlash uchun birinchi navbatda uning metodik modeli takomillashtirildi. Modelning maqsadi va vazifalari, asos sifatida qabul qilingan ilmiy yondashuvlar, tamoyillar, motivatsion, integrativ, kommunikativ, universal o'quv faoliyati kabi komponentlari, didaktik omillari hamda amalda qo'llash texnologiyalari aniqlandi hamda ularga mos ravishda didaktik material tayyorlandi va eksperiment jarayonida sinovdan o'tkazildi.

Metodik modelni takomillashtirish tizimli, kognitiv-kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan, kreativ-muloqotli ilmiy yondashuvlarga asoslandi.

Shuningdek takomillashtirish tamoyillari, komponentlari, omillari, amalga oshirish texnologiyalari ham belgilandi.



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetentligini takomillashtirilgan modeli quyidagi tamoyilarga asoslandi:

- 1) o‘quvchilarning yosh fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- 2) o‘qitish mazmunini didaktik yo‘naltirilganligi;
- 3) mavzulararo integratsiya; taqdim etilgan topshiriqlarning lingvistik kompetensiyani shakllantirishga metodologik jihatdan mosligi;
- 4) kommunikativ-kognitiv yo‘naltirilganlik;
- 5) fikrlash, nutqiy faoliyatning barcha turlarini yaxlit rivojlantirish, o‘rganigan mavzu bo‘yicha fikrni izchil va asosli bayon etish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishning takomillashtirilgan modelini yaratishda yuqorida ko‘rsatilgan ilmiy yondashuvlar integrativ usulda qo‘llanildi. Biroq, lingvistik kompetensiyani, birinchi navbatda, o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilganligini, e’tiborga olib, ustuvorlik shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga berildi. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim ko‘p bosqichli, differetsial, individual, subyektiv-shaxsiy kognitiv omillariga aniqlandi.

Shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvi asosida tashkil etilgan dars, an’anaviydan farqli o‘larоq, birinchi navbatda “o‘qituvchi — o‘quvchi” o‘zaro ta’sir turini o‘zgartiradi. O‘qituvchi jamoaviy uslubdan hamkorlikka o‘tadi, natijalarini emas, balki o‘quvchining protsessual faoliyatini tahlil qilishga e’tibor qaratadi. O‘quvchining pozitsiyasi o‘zgaradi-tirishqoqlikdan faol ijodga o‘tadi, uning tafakkuri boshqacha bo‘ladi: aks ettiruvchi, ya’ni refleksiyaga qaratiladi. Dars va mashg‘ulotlarda rivojlanayotgan munosabatlarning tabiatini ham o‘zgaradi. Asosiysi, o‘qituvchi nafaqat bilim berishi, balki o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga harakat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan lingvistik kompetensiya shakllantirish darslari va an’anaviy dars o‘rtasidagi farqlarni quyidagicha ifodalash mumkin.

1. Maqsadni belgilash. Maqsad-o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, har bir darsda o‘quv faoliyati shakllanib, uni o‘rganish, o‘zini rivojlantirishga qiziqqan subyektga



aylantiradigan shunday sharoitlarni yaratish. Darsda doimiy suhbat turi — o‘qituvchi-o‘quvchi muloqoti.

2. O‘qituvchining faoliyati: u o‘quv faoliyatining tashkilotchisi, unda o‘quvchi qo‘shma ishlanmalarga tayanib, mustaqil izlanishni olib boradi. Markaziy figura shogird! O‘qituvchi muvaffaqiyatga yetaklovchi holatini yaratadi, hamdard bo‘ladi, rag‘batlantiradi.

3. O‘quvchining faoliyati. O‘quvchi o‘qituvchi faoliyatining subyektidir. Faoliyatni o‘qituvchi emas, balki o‘quvchining o‘zi amalga oshiradi. Rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lgan muammoli izlanish va loyihalarni o‘qitish usullari qo‘llaniladi.

4. O‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari. Subyekt-subyekt. Butun guruh bilan ishlashda o‘qituvchi aslida har kimning ishini tashkil qiladi, o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, shu jumladan uning aks refleksiv tafakkuri va o‘z fikrini asosli ravishda ifodalash malakasini shakllantiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan dars mashg‘ulotini tayyorlash va o‘tkazishda o‘qituvchi o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishi, o‘quvchini birinchi o‘ringa qo‘yishi, so‘ngra o‘z pozitsiyasini belgilab, faoliyatini belgilashi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasi tovushlarni, harflarni, so‘z qismlarini, morfemalarini, gap qismlarini taniy olish va til hodisalarini guruhlarga bo‘lish, tahlilning barcha turlarini egallash kabi malakalarda namoyon bo‘ladi.

Ushbu malakalarni shakllantirish va rivojlanish xususiyatlariga eng mos keladigan va ayni paytda eng katta rivojlanish salohiyatiga ega bo‘lgan o‘qitish usullari va vositalaridan foydalanishni taqozo etadi qiladi. Til ilmi nazariyasida didaktik o‘yin asosiy shunday usul hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, biz o‘yin o‘zining potensial mahsulorligi nuqtai nazaridan bolalarni rivojlanishning ajoyib vositasi degan xulosaga kelishimiz mumkin, chunki o‘yin sharoitida bolalarning faoliyati shaxsiy ma’noga ega bo‘lishi mumkin va shu bilan shaxsning yanada samarali vositasiga aylanishi mumkin. Aynan o‘yin vaziyatlari bolalarga turli xil ta’lim



faoliyati turlarini o'rgatish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, chunki ular qiziqish va istak asosida bola tomonidan atrofdagi vogelik to'g'risida mustaqil bilim hosil qiladi.

Muammoga shu nuqtai nazaridan yondashib, tadqiqot jarayonida quyidagi holatlarga urg'u berildi.

Ta'lism oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lism jarayonining markazida ta'lism oluvchi bo'lgan o'qitish usullari interfaol metodlar hisoblanadi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lism beruvchi ta'lism oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lism oluvchi butun jarayon davomida faol ishtirok etadi.

Interfaol metodlar guruhiga boshlang'ich ta'limda qo'llash imkoniyati nuqtai nazaridan muammoli suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbat, bahs-munozara. Mazkur usullar ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanilishi sababli biz ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarini idrok etishlariga moslashtirib qo'lladik.

"Aqliy hujum" metodi. Bu metodda o'qitish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Muammoli savol beriladi.
2. O'quvchilar tomonidan turli fikr va g'oyalar bildiriladi va jamlab boriladi.
3. Fikr va g'oyalar mazmun-mohiyatiga ko'ra guruhlanadi.
4. Mukammal, aniq va to'g'ri javoblar tanlab olinadi.
5. "Aqliy hujum" usulida ishlashda barcha o'quvchilar qatnashishi talab etiladi va ular bildirgan fikr-mulohazalar inobatga olinadi[75].

"Aqliy hujum" metodi maqsadga qarab darsning turli qismlarida amalga oshiriladi:

- 1.Ta'lism oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu usul dars jarayonining kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda, yangi mavzuni o'tish qismida qo'llanadi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda, asosiy mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng amalga oshiriladi.

Bu usulning bosqichlari quyidagicha:

1. O'quvchilardan muayyan tushunchaning izohi, ma'nosi so'raladi.
2. O'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar.
3. O'quvchilarning fikrlari eshtiladi, doska yoki daftarga qayd etib boriladi.
4. Bildirilgan fikrlar belgi-xususiyatiga ko'ra guruhlanadi, umumlashtiriladi.
5. Savolga aniq, to'g'ri va mukammal javob tanlab olinadi va qolgan javoblarga sharh beriladi[27].

Tadqiqot jarayonida interfaol usulda o'tkaziladigan quyidagi ta'limiy o'yinlardan ham foydalanildi.

"Lingvistik saboq". Ushbu o'yinni umumlashtirish yoki takrorlash darslarida qo'llash samarali natija berishi aniqlandi. Mazkur ta'limiy o'yin o'tilgan mavzuga doir tushunchalar miqdori va murakkablik darajasi qarab, 6-10 daqiqa davomida o'tkazish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. O'qituvchi proyektor ekranida slayd namoysh etadi. Unda avvalgi darslarda shakllantirilgan grammatic tushunchalar yozilgan. O'quvchilar ularni shahrlab, izog'lab, fikrlarini misollar yordamida tushuntirishlari lozim. Bu daqiqalar davomida mavzuga doir grammatic tushunchalarni ma'nosi, agar mavjud bo'lsa, sinonimi, muqobili, variantlari yuzasidan bilimlar beriladi hamda misollar asosida dalillanadi. Bu, albatta, o'quvchilarga o'rganilgan mavzuga doir tushunchalarni mustahkamlash va takomillashtirshda samara berishi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

"Lingvistik saboq" daqiqasi davomida 3-4 sinf o'quvchilariga yangi mavzuga doir tushunchalar ham berilishi mumkinligi ham tajriba-sinov ishlari jarayonida asoslandi. Bunday usul yordamida ularning mazkur tushunchalar bo'yicha bilimlari darajasi aniqlandi. Holat tahlil qilinib, o'quvchilarning mavjud bilimlari takrorlash asosida mustahkamlanadi, yangi tushunchalar bilan boyitiladi.

"Kichik guruhlarda ishslash" metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi, ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalg' etadi va baholaydi.

"Sirli kataklardan o'rganilgan tushunchalarni top" ta'limiy o'yini. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Har bir guruhga bir nechta o'tilgan mavzular nomi yashirilgan konvertlar beriladi, O'quvchilar belgilangan vaqt ichida



yashiringan mavzularni topib, izohlashi talab etiladi. Masalan, tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida 3-sinfda "So'z turkumlari" bo'limini o'qitishda ushbu o'yin qo'llandi. Konvertlar ichiga bo'limga aloqador ot, otning mazmunga ko'ra turlari, otlarda qo'shimchalar, otlarning turlanishi, sifat, asl sifat, nisbiy sifat, sifatlar kelishigi qo'shimchalari, son so'z turkumi, sonlarning tasnifi mavzular berildi.

Tushunchalarni to'g'ri, aniq va mukammal izohlagan guruh g'olib deb topildi.

"Qatorni davom ettir" o'yini. Bu o'yinda o'quvchilarga mavzuga oid tushunchalar beriladi va bu ro'yxatni davom ettirish topshiriladi. 4-sinf ona tili darslarida gap, gap bo'laklari, bosh bo'laklar, darak gap, so'roq gap kabi tushunchalar beriladi, o'quvchilar bilimlariga tayangan holda, mazkur tushunchalar guruhini davom ettiradilar, daftarlariga qayd etadilar.

Qatorga kiritilgan tushunchalar miqdori aniqlanadi, tushunchalarning izohi so'raladi.

"Davom ettir" usuli. O'quvchilar ikki guruhga ajratiladi. O'qituvchi o'tilgan mavzularga oid biror tushunchani aytadi. O'quvchilar bu grammatik tushunchaga ta'rif beradi, izohlaydi. Masalan, "Olmosh" deb aytilsa, 1-guruh a'zolari ushbu so'z turkumi haqida haqida ma'lumot aytadi. Misollar yordamida fikrlarini to'ldiradi. 2-guruhga "Fe'l" tushunchasi ko'rsatilsa, guruh a'zolari fe'l haqida batafsil ma'lumotlarini aytadi. Aytilmagan izohtalab o'rirlarni guruh vakillari to'dirib borishlari ham mumkin. O'qituvchi kuzatuvchi vazifasini bajarib, ma'lumotlarning to'g'rilingiga, misollarning o'rinli ekanligiga e'tibor berishi lozim bo'ladi. Bu usul shu tarzda davom etadi. Faol ishtirok etgan o'quvchilar mashg'ulot jarayonida rag'batlantirib boriladi.

"Bobomning bog'i" ta'limiy o'yini. Bu usulda o'quvchilar 2 guruhga bo'linib, yozuv taxtasiga osib qo'yilgan, faqatgina shoxlardan iborat 2 ta daraxt maketi ustida ishlaydilar. Guruh o'quvchilari bittadan daraxtning oldiga kelib, "Oltin kuz" qutisidagi bargchalardan tanlaydi va ular orqasidagi savollarga javob beradi. Savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchi bargchani daraxt maketiga ilib qo'yadi, agar javob to'g'ri bo'lmasa, o'quvchi bargchani o'z partasiga qo'yib qo'yadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Daraxtiga ko'p barglarni ilgan guruh g'olib bo'ladi.



G‘olib guruh o‘quvchilari bog‘ining daraxtlarini yaxshi parvarish qilganliklari uchun rag‘bat kartochkasi bilan taqdirlanadi. Mag‘lub guruh o‘quvchilari esa, kerakli xulosa qiladilar. Mazkur usuldan foydalanish natijasida o‘quvchilarning ona tiliga oid tushunchalarni o‘zlashtirganligi darajasi aniqlanadi. O‘quvchi mavzu bo‘yicha keng tushuncha va ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

“So‘zlarni yodda tutish” ta’limiy o‘yini

Sinf o‘quvchilari kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so‘z tanlaydi.

1. Daraxt, paxta so‘zi bilan o‘yin boshlanadi. Dovuchcha, danak, do‘mbira, doira, do‘lana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi “d”, “p” harflari bilan boshlanadigan so‘zlartopiladi.
2. Daraxt, paxta so‘zlarining birinchi bo‘g‘iniga da-, pax- bo‘g‘in qo‘shib so‘z hosil qilish: dala, dada, paxtakor, paxtazor.....
3. Berilgan so‘zlarga ohangdosh so‘zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta, daraxt, karaxt kabi.
4. Berilgan so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha so‘zlarni eslash: paxta, momiq, chigit, shona, g‘o‘za, ko‘sak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz
5. Berilgan so‘zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar
6. Berilgan so‘zlar bilan bog‘liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht to‘qishga harakat qilish.

“Topag‘on” o‘yini.

- 1.Tulki, sichqon, mazali non, dush, qochdi, dum, yong‘oq;
- 2.Xurmo, malla soch, kamon, tush, afsus, daryo, osmon;
- 3.Taksi, kino, pul, sahifa, chipta, uyalib qoldik, sahna;
- 4.Ovchi. Muzqaymoq, bo‘ri, hayvonot bog‘i, qafas, daraxt:
- 5.Tufli, koptok, erka, oyna, ertak, tosh.

Berilgan so‘zlar ishtirokida matn tuzing va unga sarlavha toping.

“Kim ko‘p so‘z tuzadi?” o‘yini

O‘quvchilarga biror harf (tovush)ga oid so‘zlar topish vazifasi yuklatiladi. Bu harf (tovush) so‘z boshi, so‘z o‘rtasi va so‘z oxirida kelishi lozimligi vazifasi beriladi.

Masalan. “a” tovushiga oid so‘zlar toping.



So‘z boshida: ayiq, asal,...

So‘z orasida: sariq, maktab

So‘z oxirida: bog‘cha, chana... kabi.

“Harflarni shunday o‘zgartiringki so‘z hosil bo‘lsin” o‘yini
O‘quvchilarga so‘zlar beriladi. O‘quvchilarga so‘zdagi biror harfni o‘zgartirish orqali boshqa so‘z hosil qilishlari kerakligi tushuntiriladi. Kim ko‘p so‘z tuza olsa ana o‘sha o‘quvchi g‘olib sanaladi. Masalan: Maktab – maqtab, bor - bosh - bos kabi.

“Berilgan harflar asosida she’rlar to‘qing” o‘yini

Mavzuga oid biror so‘zning bosh harfiga moslab she’r, matn yaratish vazifasi qo‘yiladi. O‘quvchilar so‘z mazmunini inobatga olib she’rlar to‘qishlari kerak. Masalan:

Vatan azizdir

Azizdir elda.

Tinchligin istaydi Aziz elimda


Nomi o‘chmas

Mening dilimda, kabilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, mashg‘ulot boshida o‘tkazilgan “Lingvistik saboq” daqiqasi o‘quvchilarni mavzuni o‘rganishga tayyorlaydi, ularning terminologik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarni lingvsitik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dars jarayonida samarali foydalananadigan metodlardan biri - “Kichik guruhlarda ishlash” metodi. Mazkur usulni qo‘llashda ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda, o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga yo‘naltiriladi.

Mazkur kompetensiyani rivojlantirish mazmuni o‘quvchilarda fikr va mulohazalarini o‘z ona tilida erkin, aniq, qisqa, ravon va tushunarli tarzda bayon eta olishiga, o‘z nutqida adabiy til normalariga rioya qilgan holda so‘zlash, imlo va uslubiy xatolarsiz fikr almashishga yordam beradi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mazkur kompetensiyalarga ega o‘quvchini tarbiyalash “Ona tili” fanining vazifasidir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Азизов У. Тил билиш тараққиётга әлтади. // Янги Ўзбекистон, 2022, 9 февраль. – № 40.
4. Мухиддинова Х. Таълим боскичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш пед. фан. ном-ди дисс. ТДПИ -Тошкент, 2011. -270 б.